



UDK 37.013.4:504.7:37.091

Adashoy UMMATQULOVA,

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi magistranti

Guliston davlat pedagogika instituti, Sirdaryo O'zbekiston.

E-mail: adaso386@gmail.com.

GulDPI dotsenti, p.f.d D.Samatova taqrizi asosida

FORMING PRIMARY SCHOOL STUDENT'S POSITIVE ATTITUDE TOWARDS THE NATURAL ENVIRONMENT BASED ON THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES

Annotation

This article discusses the process of teaching primary school students in close connection with the environment, focusing on fostering a positive attitude toward nature and developing ecological thinking. Through the teaching of natural sciences, particular attention is paid to stimulating students' interest in nature, cultivating care and responsibility, enhancing curiosity toward sciences, and developing skills to analyze natural phenomena and events. The article also highlights the possibilities of using modern pedagogical and educational technologies to ensure the integration of knowledge across various subjects while studying global environmental issues.

Keywords: Primary education, ecology, ecological awareness, environmental education, ecological upbringing, efficiency, natural sciences, environment, process, concept, ecological culture.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПРИРОДНОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс обучения учащихся начальных классов в тесной связи с окружающей средой, с акцентом на формирование положительного отношения к природе и развитие экологического мышления. Особое внимание уделяется стимулированию интереса учащихся к природе, воспитанию заботливости и чувства ответственности, повышению интереса к наукам, а также развитию навыков анализа природных явлений и событий через изучение естественных наук. Также в статье рассматриваются возможности использования современных педагогических и образовательных технологий для обеспечения целостности знаний между различными учебными предметами при изучении глобальных экологических проблем.

Ключевые слова: Начальное образование, экология, экологическое сознание, экологическое образование, экологическое воспитание, эффективность, естественные науки, окружающая среда, процесс, понятие, экологическая культура.

TABIIY FANLARNI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ATROF TABIIY MUHITGA OID IJOBIY MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof-muhit bilan uzviy bog'lab o'qitish jarayonida o'qitish jarayonida o'quvchilarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabat va ekologik tafakkurni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tabiiy fanlarni o'qitish orqali o'quvchilarda tabiatga nisbatan qiziqishni, g'amxo'rlik va mas'uliyat hissini shakllantirish, fanlarga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish, tabiat hodisalari hamda voqea-jarayonlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga ushbu maqolada dunyodagi ekologik muammolarni o'rganishga qaratilgan turli o'quv fanlari o'rtasidagi bilimlar uzviyligini ta'minlashda zamonaviy pedagogik va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ekologiya, ekologik ong, ekologik ta'lim, ekologik, tarbiya, samaradorlik, tabiiy fanlar, atrof-muhit, jarayon, tushuncha, ekologik madaniyat.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida kuzatilayotgan ekologik muammolar – iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi – insoniyat oldiga ta'lim tizimi orqali ekologik ongli va mas'uliyatli avlodni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Ayniqsa, ekologik muammolarning oldini olishda insonning tabiatga bo'lgan munosabati hal qiluvchi omil sanaladi. Shu bois, atrof-tabiiy muhitga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish masalasi ta'lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Davlatimizda ham ekologik barqarorlik va yashil taraqqiyot masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z asarlari va nutqlarida ekologik muammolarni bartaraf etish bevosita ta'lim va tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liq

ekanligini alohida ta'kidlaydi. Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida ta'lim tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda yosh avloddan ekologik madaniyat, tabiatga bo'lgan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Prezidentimizning "Ta'lim sifati – taraqqiyotning hal qiluvchi omili" [1] degan g'oyasi tabiiy fanlarni zamonaviy, ilmiy va tarbiyaviy jihatdan uyg'un holda o'qitish zaruratini ko'rsatadi. Shuningdek, Prezident SH.M. Mirziyoyevning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" (2020) asarida ham ta'lim va tarbiya masalasi jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida baholanib, yosh avlodni tabiatga mehrlri, ekologik madaniyatli qilib tarbiyalash zarurligi alohida urg'ulanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ijobiy

munosabatini tabiiy fanlarni o'qitish asosida shakllantirish masalasi bugungi ta'lim tizimi uchun nihoyatda dolzarb bo'lib, ushbu tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston ilmiy manbalari doirasida ushbu mavzu yuzasidan Rasulova G.E [4] o'zining – “Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni atrof-muhitga bog'lab o'qitish” mavzusida ilmiy maqolasida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning tabiatga nisbatan ijobiy fikrlash qobiliyatini tahlil qiladi. Interfaol metodlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda ekologik anglash va g'amxo'rlik hissi kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, Xoliyorova X. – “Boshlang'ich sinflarda ekologiyaga oid tushunchalarni kreativ yondashuv asosida takomillashtirish”[5] mavzusida tadqiqot olib boradi. Ushbu tadqiqotda o'quvchilarda ekologik tushunchalarni shakllantirish jarayoni va ijodiy yondashuvlar orqali ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanishi o'rganiladi, bu esa ijobiy ekologik qarashlarni mustahkamlashga yordam beradi. Sultonova S.M esa o'zining – “Boshlang'ich sinflarda ekologik tarbiyani shakllantirishning zamonaviy usullari”[6] nomli tadqiqotida ekologik ta'limni boshlang'ich maktab o'quv dasturlariga kiritish va atrof-muhitni asrash kompetensiyalarini shakllantirish yo'nalishlarini tahlil qiladi. Gulbayeva S.N. – “Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslarini o'qitish va uning ahamiyati” [7] nomli maqolasida tabiiy fanlarni o'qitishning kognitiv va tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib, o'quvchilarning atrof-muhitni anglash va ilmiy savodxonligini rivojlantirishga bo'lgan ta'sirini muhokama qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-tabiiy muhitga oid ijobiy munosabatni tabiiy fanlar asosida shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish, amaliy tadbir qilish va natijalarni kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'rganishning e'tiborli jihati shundaki, o'quvchilar o'yin yoshida bo'lganligi sababli doim faol. Ilmiy tadqiqotlar faqat ilmiy faoliyat bilan cheklanib qolmay, tajribalar o'tkazish jarayonini ham rivojlantiradi. Shu jihatdan A.Suyunov o'z tadqiqotida “O'quvchining ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatini shakllantirishning muhim omili ekologik ta'lim ekologik madaniyatini izchil va uzluksiz shakllantirish tizimi sifatida shaxsni ijtimoiylashtirish jarayonida ta'lim, tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, shuningdek, hayotiy tajriba tabiiy resurslardan foydalanish huquqini va tabiiy muhitning holati uchun javobgarlikni o'zida mujassamlashtirgan, uning qiymatini tushunishga asoslangan madaniyat bu tabiat bilan munosabatlarning yangi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shu sababli, inson hayoti eng muhimi qulay muhitni ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lgan maqsadli ekologik ta'lim tizimi insonning ekologik madaniyatini shakllantirish vositasiga aylanishi lozim, chunki atrof-muhitning sifati salomatlikni belgilaydi[2]” - degan fikrni ilgari surgan. Boshlang'ich sinflarda “Tabiat va men”, “Jonli tabiat burchagi”, “Men qushlarni sevaman” texnologiyalari yordamida dars yanada qiziqarli hamda mazmunli tashkil etiladi. Hamda shu kabi yangi texnologiya hamda metodlarni ishlab chiqish tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Shuningdek ushbu tadqiqot oldida bir qator vazifalar mavjud bo'lib, ular quyidagi jadvalda keltirilgan:

Jadval. Tadqiqot vazifalari.

1.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga bo'lgan dastlabki munosabatini aniqlash.	So'rovnoma, kuzatish va intervyu orqali o'quvchilarning tabiiy muhitga bo'lgan hozirgi qarash va xulq-atvorini o'rganish.
2.	Tabiiy fanlar darslarida ijobiy ekologik xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni tadqiq qilish.	Darslarda interfaol metodlar, eksperimental, loyihaviy ishlar va boshqa pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish
	O'quvchilarning ekologik bilimlari va ijobiy munosabatini rivojlantirish bo'yicha eksperiment o'tkazish:	Praktikumlar, tajribalar va ilmiy tadqiqot faoliyatlari orqali o'quvchilarning kuzatuv, tahlil va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.
4.	O'quvchilarning ekologik xulq-atvori va bilim darajasidagi o'zgarishlarni baholash:	Eksperimental natijalarni tahlil qilish va o'quvchilarning dastlabki hamda keyingi holatidagi farqlarni solishtirish.
5.	Samarali pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish:	Tabiiy fanlar darslarida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish

Demak, atrof-muhitni asrash to'g'ri tarbiya hamda ekologik madaniyat, ekologik bilimlar vositasida bajarilishi hammamizga ma'lum. Bugungi kunda ta'limda ekologik pedagogika fanlarini kirib kelishi zaruratini yuzga chiqaradi. Atrof-muhitni asrab-avaylash, unga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish mohiyati ostida esa, aynan, to'g'ri ta'lim yotadi. Ta'lim poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, kelajakka umid ham shunchalik kuchli bo'ladi. Ekologik ta'lim va tarbiya o'quvchining atrof-muhiti, tevarak-atrofi va istiqboli haqidagi tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Yosh avlod tarbiyasining asosiy ijtimoiy omillaridan biri ular voyaga yetayotgan muhit, tabiatning go'zalligi, obodonlashtirishdir. Bu har bir O'zbekiston fuqarosi uchun suv bilan havo singari muhim bo'lishi lozim. O'quvchilarning sifatli ta'lim hamda tarbiya olishlari uchun maktab binosi, maktab hududi, hamda ichki yo'laklari, xonalarini yashil tusga kirgazish orqali kreativ qilish mumkin. Buning natijasi o'laroq o'quvchilar va xodimlar kun davomidagi charchoqlardan xalos bo'lib ruhiy hardiq olishadi, kayfiyati ko'tariladi. Maktab nafaqat ta'lim muassasasi, balki o'quvchilarning ikkinchi uyi ham sanaladi. Shu sababdan maktab hududini ko'kalamzorlashtirish bolalar uchun ham tabiatni sevishtga, undan bahra olishiga turtki bo'la

oladi. Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darsligiga e'tibor beradigan bo'lsak, darslik 2023-yil “Novda” nashriyotida nashr qilingan (1-4-sinflar uchun darslik, muallif Malikova Y.M.) Darslik ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism birinchi hamda ikkinchi choraklar uchun, ikkinchi qism esa uchinchi hamda to'rtinchi choraklar uchun mo'ljallangan. Darslikda har bir mavzu tushunarli tarzda talqin qilinish, har bir detali bola e'tiborini torta oladi. Darslikda mavzular “Akmal” hamda uning tengdoshi “Madina” tilidan so'zlanadi. Birinchi hamda ikkinchi sinf darsligi, asosan, kundalik turmush tarzini yoritisa, uchinchi va to'rtinchi sinf darsligida hayvonlar, o'simliklar, ularning rivojlanishi, ko'payishi, fizik hodisalar, tabiat haqida umumiy tushuncha berilgan. Bolalarni qiziqishga undaydigan yana bir jihat shuki - darslikda tadqiqot loyihalari keltirilgan. Bunda o'quvchilar bevosita o'zlari tadqiqot olib boradilar, natijada tabiat haqida, uning ajoyibotlari haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar, savollariga javob topadilar.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz davomida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim hamda tarbiya berish masalalarini o'rganish natijasida shular ma'lum bo'ldiki, ekologik ta'lim-tarbiya atrof-muhitni asrash, pedagogik kengashningkun tartibiga kiritilishi, maktab uslubiy

birlashmasining tarbiyaviy jarayonga bo'lgan e'tiborini oshirishi, pedagoglar ish rejalariga ekologik ta'lim uchun to'garaklar tashkil etilishi talim dargohlari uchun munosib natijaga erishish uchun samarali yordam beradi. Boshlang'ich sinf dars jarayonida pedagoglar turli metodlar bilan bir qatorda turli texnologiyalar, multimedia vositalaridan samarali foydalanishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilish bilan bir qatorda darsning sifatini oshirib, o'quvchilarning diqqatini jamlay oladi. Bundan tashqari, maktab o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan to'garak ish dasturi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalar ham bolalar faolligini oshirib, ularni tabiat bilan bir butun bo'lishga undaydi. Shu bilan birga, amaliy o'qitish usullari o'quvchilarning amaliy faoliyatiga asoslanadi. Amaliy ko'nikma va malakalarana shu usullar orqali shakllanadi. Amaliy usullar: kuzatish, tadqiqot, mashq, amaliy ish, laboratoriya ishi, didaktik o'yinlar. Kuzatish

tabiatni bilishning asosiy usullaridan biri sanaladi. Boshlang'ich sinflar uchun dunyoqarash dasturlari bolalarning atrof-muhitni kuzatishiga qaratilgan.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, atrof-muhitni muhofaza qilish insoniyatning sog'lom hayot kechirishi ekologik tizimlarni va tabiiy resurslarni saqlashi, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishiga, ulardan oqilona foydalanishiga, turmush tarzi davomida tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga bevosita bog'liq ekan. Shu boisdan bolaga erta maktab davridanoq ekologik bilim hamda tarbiya berish, har tomonlama mukammal shaxsni voyaga yetkazish uchun xizmat qiladi desak adashmaymiz. Maktablarda dars jarayoniga yangi metodlar hamda texnologiyalar tatbiq etish, to'garaklar uchun maktab bog'idan foydalanish, mavzuni amaliy jihatdan mustahkamlash, multimedia vositalaridan samarali foydalanish tavsiya etildi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev "Oliy Majlisga murojaatnoma". Toshkent 2020
2. Suyunov D.A. Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, vol.3
3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent. 2022.
4. Mirziyoyev SH.M. "Oliy Majlisga murojaatnoma"lari - Toshkent. 2018-2024.
5. Mirziyoyev SH.M. "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" - Toshkent. 2020.
6. Rasulova G.E. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni atrof-muhitga bog'lab o'qitish." Yurt faxri. 2024.
7. Xoliyorava X. "Ekologiyaga oid tushunchalarni takomillashtirish metodikasi" "Ustozlar uchun". 2024.
8. Sultanova S.M. "Ekologik tarbiyani shakllantirishning zamonaviy usullari" . Modern Science and research,2025.
9. Gulbayeva N.S." "Tabiiy fanlar darslarini o'qitish va uning ahamiyati. Universal publishing,2024.
10. "Tabiiy fanlar" 1-4-sinf darsliklari. Umumiy o'ta ta'lim maktablari uchun darslik. - Toshkent. Novda 2023
11. Bovanova U.A. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik ijobiy munosabatini oshirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati" "Ilm-fan taraqqiyoti: muammo,yechim va istiqbollari II an'anaviy" konferensiya . Toshkent.2024.